



Madinabonu MUXAMMADIYEVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti
E-mail: madinabonumuxammadiyeva14@gmail.com

O'zMU dotsenti, PhD M.Abdullaeva taqrizi asosida

MEHNAT HAQIDAGI MAQOLLARNI O'QITISHDA UCHRAYDIGAN INTERFERENSIYALAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Annotatsiya

Maqola mehnat haqidagi maqollarning tahliliga bag'ishlangan bo'lib, u til nazariyasi va chet tilni o'qitish metodikasi nuqtayi nazaridan, antropotsentrizmning milliy-madaniy va umuminsoniy jihatlari doirasida ko'rib chiqiladi. Unda maqollarni tarjima qilishda yuzaga keladigan interferensiya holatlari, jumladan, fonetik, leksik, sintaktik, semantik va uslubiy xatolar aniqlanadi va o'rganiladi. V.V. Alimov, U. Vaynrayx, E.D. T. Odlin va M. Jusupov kabi olimlarning nazariyalariga tayangan holda, maqolada interferensiyaning paradigmatic va syntagmatic turlari hamda ikkinchi tilni o'rganish jarayonida o'quvchilar duch keladigan qiyinchiliklarni ochib beruvchi salbiy transfer masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida taqqoslash, lingvistik tavsif, induktiv va deduktiv metodlardan foydalanilgan bo'lib, bu ilmiy muammoning nazariy va amaliy ahamiyatini aniqlash imkonini berdi.

Kalit so'zlar: Paremiologiya, mehnat haqida maqol, tilshunoslik, madaniyat, interferensiya, neytrallash, pragmatika, tarjima, didaktika.

INTERFERENCES ENCOUNTERED IN TEACHING PROVERBS ABOUT LABOR AND WAYS TO ELIMINATE THEM

Annotation

The article is devoted to the analysis of the issue of proverbs about labor from the perspective of language theory and the methodology of teaching a non-native language, considering both national-cultural and universal aspects of anthropocentrism. The article identifies and examines cases of interference in the translation of proverbs, including phonetic, lexical, syntactic, semantic, and stylistic errors. Drawing on the theories of scholars such as V.V. Alimov, U. Weinreich, T. Odlin, and M. Djusupov, the study explores paradigmatic and syntagmatic types of interference, as well as negative transfer, highlighting the difficulties learners face in acquiring a second language. The research employs methods such as contrastive linguistic analysis, inductive and deductive approaches, which have made it possible to determine the theoretical and practical significance of the scientific problem.

Key words: Paremiology, proverb about work, linguistics, culture, interference, neutralization, pragmatics, translation, didactics.

ПРОБЛЕМЫ, ВОЗНИКАЮЩИЕ ПРИ ОБУЧЕНИИ ПОСЛОВИЦАМ О ТРУДЕ, И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ

Аннотация

Статья посвящена анализу проблемы пословиц о труде с позиции теории языка и методика обучения неродному языку в аспекте национально-культурного и общечеловеческого планов антропоцентризма. В статье определяются и изучаются случаи интерференции при переводе пословиц, включая фонетические, лексические, синтаксические, семантические и стилистические ошибки. Опираясь на теории таких ученых, как В.В. Алимов, У. Вайнрайх, и Т. Одлин, М. Джусупов, в статье рассматриваются парадигматические и синтагматические типы интерференции, а также негативный перенос, выявляющий трудности, с которыми сталкиваются учащиеся при освоении второго языка. В ходе работы были использованы такие методы как сопоставительный, лингвистическое описание, индуктивный и дедуктивный что позволило определить теоретическую и практическую значимость научной проблемы.

Ключевые слова: Паремология, пословица о труде, лингвистика, культура, интерференция, нейтрализация, прагматика, перевод, дидактика.

Kirish. Xalq og'zaki ijodining nodir namunalari hisoblangan matal, masal, maqollarni yosh avlodaga o'rgatish va ularni milliy ruhda tarbiyalash davlat e'tiboriga molik vazifalardan bo'lib kelmoqda. Ta'lim sohasining muhim vazifalaridan biri tilni lingvistik jihatini o'rgatibgina qolmay talaba yoshlarni milliy qadriyatlar asosida ta'lim berish, har bir millat dunyoqarashi, ularni turmush tarzi, mintalitetidan xabardor qilib o'rgatish muhim ekanligini ko'rsatadi. Til uni foydalanuvchi xalqning o'ziga xos xususiyatini ifoda etib, uning mazmun-mohiyatini boshqa tillarga to'g'ridan- to'g'ri tarjima qilib bo'lmaydi. Inson - idish, til uning mazmunidir. Til ham namlik kabi, butun inson qalbiga, ongiga singib, umuminsoniy va milliy-madaniy mazmun va shakl kasb etadi, mazmunli va rasmiy ko'rsatkichga, insoniy, ijtimoiy va til birliklarining (tovush, so'z,...) ifodasiga aylanadi, shu butunlikni mustahkamlaydi, mazmun va shaklini

chuqurlashtiradi. Natijada shaxs, millat, milliy birlashma ongida psixotimsollar, bir butun sifatida til birliklari tizimi va lingvomadaniy qadriyatlar shaklida shakllanadigan o'ziga xos milliy mazmun va shakl vujudga keladi, ular asosida milliy jamiyat bir-biri bilan so'zlashadi va tushunadi, bir tilda va tegishli milliy mentalitetda lisoniy muloqotni amalga oshiradi[4]. Ayniqsa, xalq maqollarida har bir millat o'z kechirmalaridan, dunyo qarashidan kelib chiqqan holda o'z fikrlarni ifodalaydi. Maqollar tilning eng muhim birliklaridan bo'lib, ular odamlar ishonchini va ularning olam haqidagi tushunchasini aks ettiradi. Maqollarni o'rgatish davomida alabatta ularni ma'nosini tahlil qilmasdan turib talabalarga o'rgatib bo'lmaydi, chunki maqollarda ko'chma ma'no, estihzo, kinoya, kesatish kabi tushunchalar mavjud bo'lib talabalar ularni to'g'ridan to'g'ri tarjima qilganda xato tushunilishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda ta'lim sohasida maqollarni o'rgatish talabalarni madaniy va pragmatik bilimlarni oshirishga yuqori samara beradi. Ammo maqollarni o'rganish davomida talabalar til interferensiyasiga uchrashlari mumkin va o'qituvchilardan buni oldini olish uchun kerakli mashqlar ishlab chiqishni talab qilinadi.

Interferensiya masalasi uzoq vaqtdan beri ikki tillilik va tarjima muammolarini o'rganuvchi tilshunoslarning diqqat ob'ekti bo'lib kelgan. Lingvodidaktikada ham xuddi shunday muhim o'rin tutadi. Interferensiya hodisasi ikkinchi tilni o'rganish jarayonida doimo uchraydi. Ba'zan bu ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ko'proq salbiy ta'siri uchraydi, bunda o'quvchilar nutq xatolariga yo'l qo'yishadi, til me'yorlarini buzishadi va sezilarli aksentga ega bo'lishi mumkin. Interferensiya hodisasini paydo bo'lish sabablari va ushbu hodisaga ta'sir qiluvchi omillar juda ko'p, ular orasida asosiylarini ajratib ko'rsatish mumkin[5].

- ona tilini bilish, nutqni rivojlantirish darajasi va tilni o'zlashtirish;

- chet tilini bilish, nutqni rivojlantirish darajasi va tilni o'zlashtirish;

- tilni o'rganish davri, ona tili va xorijiy tillarni o'rganish o'rtasidagi vaqtinchalik farq. Ammo bu farq qanchalik katta bo'lsa interferensiya hodisasi shuncha yuqori bo'ladi.

Shu bilan birga interferensiya ikki tillilarning nutqida bir nechta tillarni bilishi natijasida, ya'ni til bilan aloqa qilish natijasida yuzaga keladigan har ikkala tilning me'yorlaridan chetga chiqish holatlari tushuniladi[8].

Tilning majoziy vositalarini ma'lum darajada egallash chet ellik talabalar uchun muammo; Ko'pincha ular noto'g'ri talqin qilinadi, chunki maqol va frazeologik birliklarda boshqa til va boshqa madaniyat qoidalarini bajariladi va o'qish paytida

turli til va etnik-madaniy jamoalar vakillari o'rtasida bilvosita aloqa mavjud. Bunday holda, lingvistik interferensiya o'zaro tushunish uchun yagona to'siq emas [3,6]

Tilshunoslar tillararo interferensiyani kuchli va kuchsiz turga ajratishadi. Kuchsiz interferensiya - bu qisqa vaqt ichida bartaraf qilish mumkin bo'lgan va o'quvchilardan katta kuch talab etmaydigan interreferensiya turi hisoblanadi. Kuchli interferensiya esa, aksincha, bartaraf qilish ancha qiyin va juda ko'p amaliyot va turli xil faoliyat turlarini talab qiladi. Masalan, ingliz tilidagi 'When pigs fly' maqoli o'zbek tilidagi 'Tuyaning dumi yerga tegsa' maqoliga mos keladi. Bunda ikki millatning hech qachon amalga oshmaydigan ishini o'z maqollarida har xil ifodalashini ikki xalq madaniyatini o'ziga xosligini bildiradi va buni tushuntirib berish qiyin.[1]

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan metodlar majmui quyidagilardan iborat; nazariy (tahliliy – sintetik, qiyosiy taqqoslash) va diagnostik tahlil. Tilshunoslarning interferensiya mavzusiga oid ilmiy ishlari tahliliy o'rganib chiqildi. Diagnostik kuzatuv natijasida talabalarni maqol va frazeologik birliklardan foydalanishdagi xatolarni aniqlash uchun talabalarining og'zaki va yozma tili nazorat qilindi. Biz o'z kuzatishlarimizga asoslanib, o'zbek talabalarining ingliz tilini o'rganish jarayonida yo'l qo'ygan xatolarini, jumladan yozma ishlarda va amaliy mashg'ulotlarda yo'l qo'ygan xatolarini tahlil qildik. Xatolar tasnifi mavjud tasniflar asosida amalga oshirildi [2,7].

Tahlil va natijalar. V.V. Alimov tarjima aspektida ingliz, fransuz va rus tillariga asoslangan tillar interferensiyasini o'rgangan. U quyidagi tasnifni ishlab chiqdi: 1)fonologik, 2)leksek 3)sintaktik, 4) semantik; 5) stilistik. Barcha til tasnifini birma bir ko'rib chiqishimiz mumkin[2].

№	Interferensiya turlari	Misollar	Sabab
1	Fonetik interferensiya	No sweet without sweat /nəʊ swet wi'ðaʊt swet/	Ona tilidan uchramaydigan tovushlarni, diftonglarni o'qilishini bilmaslik tufayli so'zni noto'g'ri talaffuz qilish. To'g'risi:/swi:t/ /swet/
2	Leksik interferensiya	Servis is no inheritance (xizmat meros emas)	Ona tilida mavjud assotsiativ yaqin so'z bilan almashtirish. O'rganuvchi ikkinchi tildagi so'zni ona tilidagi so'zga yaqinligi sababli tor ma'noda tarjima qilish. To'g'risi: Mehnat bilan kishi o'lmas
3	Sintaktik interferensiya	Early stages easy stages make	Ona tili va ikkinchi tilning gapdagi so'zlarning tartibi va tuzilishi o'rtasida katta farq bo'lganda gapdagi so'z tartibini noto'g'ri foydalanish. To'g'risi: Early stages make easy stages
4	Semantik interferensiya;	Soon hot, soon cold (havo tez isib ketsa tez soviydi)	Gap tarkibidagi so'zlarni ko'chma ma'noga egaligini bilmasdan to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinishi oqibatida paydo bo'ladi. To'g'risi: (Ish boshlaganda)Tez kirishgan tez soviydi
5	Stilistik interferensiya	Heads will roll (Boshi bilan javob beradi)	So'zning qo'llanilishi va so'z mosligining o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor bermaslik natijasida yuzaga keladi. To'g'risi: Rasmiy suhbatda foydalanilmaydi (kallang ketadi)

1-jadval. Interferensiya turlari va sabablari.

Odlin salbiy transferensiyani to'rt turga ajratadi: tushirib hosil qilish (underproduction), qo'shib hosil qilish (overproduction), hosil qilish xatolari(production) va noto'g'ri talqin qilish (misinterpretation) [7].

1. Tushirib hosil qilish interferensiyasi (underproduction) til o'rganuvchilari ona tili ta'siri ostida o'rganilayotgan tilning ba'zi elementlarini tushirib qoldirganda yuzaga keladi. Masalan, Good workmen seldom rich (To'g'risi: Good workmen are seldom rich). So'zlovchi o'z ona tilidan farqli bo'lgani uchun ikkinchi tildagi qiyin gap strukturasidan foydalanmaganda paydo bo'ladi. Shu sababli, o'quvchi ikkinchi tildagi ma'lum strukturalarni tushirib qoldirishga intiladi. Bunday xatoni bartaraf qilish uchun biz bir nechta mashqlarni foydali deb topdik; find missing words, filling the gap. Completion (bo'sh joyni to'ldir) mashqlari,

Production (to'liq gap tuz) mashqlari, Transformation (gapni to'g'ri shaklga keltir) mashqlari

2. Qo'shib hosil qilish interferensiyasi (overproduction)o'rganuvchi ona tili ta'sirida ikkinchi tilning gap strukturasiga ba'zi elementlarni qo'shganda yuzaga keladi. Bunda talaba ikkinchi tilning grammatik qoidalarini bilmaslik natijasida kelib chiqishi mumkin. Masalan, Nobody doesn't know (Nobody knows). Uzbek va rus tilida so'zlashuvchi o'quvchilar bunday xatolarga yo'l qo'yishga moyildirlar, chunki uzbek va rus tilida gapni ikki marta inkor qilish mumkin. Biroq, Odlin bunday interferensiya hodisasini tilda murakkab gap strukturasini yaxshi o'zlashtirmaslik natijasida tuzilmalardan ortiqcha foydalanish oqibatida sodir bo'ladi deydi. Bunday xatoga yo'l qo'ymaslik uchun quyidagi mashqlar foydali deb topdik: Awareness-Raising Exercise

(Ogohlikni oshirish mashqi), Contrastive Translation Practice (Kontrast tarjima mashqi), Error Correction Activity (Xatolarni tuzatish mashqi),

3. Hosil qiluvchi interferensiya (production) ikki turga bo'linadi: Substitutsiya (substitutions) va kalka (calques). Substitutsiya ikkinchi tilda ona tili shakllaridan foydalanilganda sodir bo'ladi, kalka esa ona tilini strukturasidan kelib chiqqan xatolardir. Masalan, o'zbek tilida so'zlashuvchi o'quvchilar o'z ona tilidagi gap strukturasini ikkinchi til strukturasiga almashtirib, "A good beginning makes a good ending" deyishni o'rniga "A good beginning a good ending makes" deyishi mumkin. Bunday muammolarni oldini olish uchun quyidagi mashqlarni taklif qilishimiz mumkin. Qiyosiy tarjima va tuzatish mashqlari (Comparative Translation and Correction). Gap strukturasini moslashtirish (Structure Matching Activity). Sintaktik almashtirish (Syntactic Transformation). Maqollar orqali mashq qilish (Using Proverbs for Interference Awareness).

4. Noto'g'ri talqin qilish (misinterpretation) ona tilidagi gap strukturasiga tegishli bo'lib, gap ma'nosini tushunishga ta'sir qilishi mumkin. Natijada, o'quvchilar so'zlashuvchi aytmoqchi bo'lgan xabarni noto'g'ri talqin qilishlari mumkin. Masalan: Ingliz tilidagi "Barking dogs do not most bite" yani "Xuradigan itlar ko'p ham tishlaydigan bo'lishmaydi" degan maqol o'zbek o'rganuvchilar orasida bir qarashda "It xuraverar karvon o'taverar" degan maqolni eslatishi mumkin. Lekin uning ma'nosi umuman boshqa vaziyatga tegishli ekanligini semantik tahlil qilish orqali tushuntirilishi mumkin. Aslida, bu maqol 'so'ziga boqma ishiga boq', 'so'z bilan aqqa baqqa, ish bilan hech qayoqqa' kabi ma'nolardagi maqol bilan sinonim bo'la oladi. Itni xurganiga ishonma ko'p xurgani bilan tishlashni eplolmaydi, bu bilan inson ko'p gapirgani bilan ishga yaramaydi degan ma'noni beradi. Bunday intereferensiyani oldini olish uchun semantic analysis of the proverb, making dialogue, discourse analysis, matching proverb with appropriate definition, content based discussion kabi mashqlarni taklif qilishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqotda xalq og'zaki ijodining nodir namunalaridan biri bo'lgan maqollarni xorijiy til, xususan ingliz tilini o'rgatish jarayonida qo'llashning lingvodidaktik, madaniy va sotsiopragmatik ahamiyati chuqur o'rganildi. Maqollar orqali til o'rganuvchilarda milliy va madaniy tafakkurni shakllantirish, tilning ko'chma ma'noli,

kinoyali, estetik jihatlarini anglashga yordam berilishi isbotlandi.

Biroq maqollarni o'rgatish jarayonida til o'rganayotgan shaxslar ko'p hollarda interferensiya hodisasiga duch kelmoqda. Bu hodisa ayniqsa fonetik, leksik, sintaktik, semantik va stilistik darajalarda namoyon bo'lib, ularning nutqiy xatolariga sabab bo'lmoqda. O'quvchilar bu xatolarni asosan ona tilining grammatik va semantik qonuniyatlarini ikkinchi tilga o'tkazish natijasida sodir etmoqdalar.

Tadqiqot jarayonida mavjud interferensiya turlarini aniqlash, ularni tasniflash va bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish maqsadida turli nazariy (taqqoslash, semantik tahlil) hamda amaliy metodlar (og'zaki va yozma nutqni tahlil qilish) qo'llanildi. Shu bilan birga, Odlin va Alimovning interferensiya tasniflari asosida didaktik mashq shakllari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maqollarni samarali o'qitish uchun ularning ma'no qatlamlarini (ko'chma ma'no, kinoya, estetik tafakkur) chuqur ochib berish zarur.

Maqollarni lingvomadaniy kontekstda o'qitish: Maqollarni bevosita tarjima qilmasdan, ularning madaniy ildizlari, xalq tafakkuri va turmush tarzini aks ettiruvchi mazmuni orqali tahlil qilish kerak.

Interferensiyaga qarshi mashqlar tizimini yaratish: Interferensiyani bartaraf etish uchun maxsus mashq turlari taklif qilinadi: Gap tuzilmasini tahlil qilish (syntax transformation exercises). Ma'nolarni moslashtirish (semantic mapping and matching). Maqollarni rolli o'yinlarda qo'llash (contextual dialogue and discourse analysis). Talaffuz mashqlari (phonetic drills for idiomatic expressions)

Ta'lim resurslariga maqollar asosidagi topshiriqlarni integratsiya qilish: B2 va undan yuqori darajadagi ingliz tili o'rganuvchilari uchun maqollar asosida tayyorlangan topshiriqlar (gap tuzatish, maqolni to'ldirish, dialog tuzish, kontekstda qo'llash) kiritilishi zarur.

Maqollarni sotsiopragmatik yondashuv asosida o'rgatish: Har bir maqolani qaysi sotsial vaziyatda ishlatilishi mumkinligi, kim bilan va qachon aytilishi to'g'risida tavsiflab berish zarur.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirish: Interferensiya turlarining lingvistik psixologik omillarini aniqlash, xalq maqollarining mentalitet va kognitiv tafakkur bilan bog'liqligini o'rganishga qaratilgan qo'shimcha tadqiqotlar olib borish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Akbembetova, A. E., Bekkozhanova, G. H., Shengelbayeva, N. R., Bekeyeva, N., & Askarova, S. A. (2021). Speech interference generated by proverbs and phraseological units of the Russian and Chinese languages. *International Journal of Society, Culture & Language*, 9(2), 29–40.
2. Алимов В.В. Интерференция в переводе. Автореферат диссертации на соискание ученой степени д. филол.н. Москва 2005. Стр 19
3. Chrissou, M. (2020). The importance of task based learning and focus on form in teaching phraseology.
4. Джусупов М. Антропоцентризм в триединстве человек — язык — социум и его выражение в пословице.// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 5 (52). — B. 122-142. <https://doi.org/10.36078/1697005908>
5. Fu, H., & Wang, S. (2020). The evaluation method of speech interference effect based on deep learning. In W. E. Wong (Ed.), *Proceedings of the 7th International Conference on Dependable Systems and Their Applications* (pp. 538-542). Piscataway: IEEE.
6. Kalbotyra, 73, 8 30. Dong, J., & Buckingham, L. (2020). Stance phraseology in academic discourse: Cross-disciplinary variation in authors' presence. *Iberica*, 2020(39), 191-214.
7. Karamotova K. M. Karamatov H.S. Proverbs, maqollar, пословицы. Toshkent-Mehnat-2000
8. Odlin, T. (1993). *Language Transfer: Cross-linguistic Influence in Language Learning*. Cambridge, CUP. <http://dx.doi.org/10.1075/jpcl.8.1.13byr>
9. Weinreich, Uriel. 1953. *Languages in contact*. New York.